

Fuqarolik jamiyati g'oyasining rivojlanish tarixi

11-sinf O'zbekiston tarixi fani darsligi asosida 3-mavzu



Mahalliy davlat hokimiyati organlari.

*O'zbekistonda
demokratik
huquqiy davlat barpo
etish jarayonida
ko'plab vazifalar
belgilangan edi.*



O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinguncha mahalliy vakillik organlarining uch bo'g'inli tizimi mavjud bo'lib hisoblanadi, ular:

1)

viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari (Sovetlari) – yuqori bo'g'in;

2)

tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari – o'rta bo'g'in;

3)

qishloq, posyolka, ovul xalq deputatlari Kengashlari – quyi bo'g'in.

Mahalliy vakillik organlariga – xalq deputatlari Kengashlari kiradi. Ular o‘z faoliyatini jamoaviy (kollegial) asosda olib boradi.



Xalq deputatlari Kengashlari ishining asosiy tashkiliy-huquqiy shakli sessiya hisoblanadi.

Mahalliy davlat hokimiyat organlari

Mahalliy vakillik organlari

Ijroiya hokimiyati

***Viloyatlar xalq deputatlari
Kengashlari***

Viloyatlar hokimliklari

***Shahar, tuman xalq
deputatlari Kengashlari***

***Shahar, tuman
hokimliklari***

“Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, vakillik organlariga 21 yoshga to‘lgan fuqarolar saylanadi.



Ijroiya hokimiyatiga – hokim va uning ijroiya apparati kiradi.

Hokim tegishli hududda oliy mansabdor shaxs hisoblanadi.



***O‘zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining 101-moddasiga ko‘ra
hokimlarning vakolat muddati – 5 yil.***

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari.

**O'zbekiston
Respublikasining
Konstitutsiyasi qabul
qilingach, fuqarolarning
o'zini o'zi boshqarish
tizimining huquqiy zamini
mustahkamlandi.**



Fuqarolar yig'ini

**Shaharchalar
fuqarolar
yig'ini**

**Qishloq va
ovullar
fuqarolar yig'ini**

**Mahallalar
fuqarolar
yig'ini**

Prezidentning 2017-yildagi farmoni asosida fuqarolar yig'inlarining uyushmasi sifatida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi tashkil etildi.



O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining yuzaga kelishi.

Mustaqillik davrida tashkil topgan ilk siyosiy partiya bu – O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidir. Partiyaga 1991-yilning noyabrida asos solindi.



Xalq demokratik partiyasi belgisi

*Mustaqillikning dastlabki
yillarida tashkil topgan
partiyalardan yana biri
bu – O‘zbekiston
“Adolat”
sotsial-demokratik
partiyasidir. U 1995-yil
fevralda tuzilgan.*



**“Adolat” sotsial-demokratik
partiyasi belgisi**



*Mustaqillik yillarida
tashkil topgan
partiyalardan yana biri –
bu O'zbekiston Milliy
tiklanish
demokratik partiyasidir.*

Ushbu partiya 1995-yili iyunda tuzilgan.

*O'zbekiston siyosiy tizimida
o'ziga xos o'ringa
ega bo'lib ulgurgan
O'zbekiston
Liberal-demokratik
partiyasi (O'zLiDeP)
2003-yil noyabrda tashkil
topgan.*



O'zbekiston ekologik harakati.

O'zbekiston ekologik harakati 2008-yil avgustda tashkil topgan.



O'zbekiston ekologik harakati o'z faoliyatini fuqarolarning hozirgi va kelgusi avlodi qulay atrof-muhit sharoitida yashashi, aholi salomatligini yaxshilash, barcha tabiiy resurslarni muhofaza qilish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishda jamiyatning bor kuch va salohiyatini safarbar qilishga qaratgan.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Mahalliy davlat hokimiyati organlarini sanang. Ular o'z faoliyatini qaysi qonunlar asosida yuritadi?*
- 2. Saylov tizimidagi so'nggi o'zgarishlar haqida nimalarni bilasiz?*
- 3. Mahalliy hokimiyat va mahalliy vakillik organi o'rtasida qanday farq va bog'liqliklar bor?*
- 4. Siyosiy partiyalar faoliyati bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.*